*Kinematografiya agentligi markaziy apparatining*
*2026-yil 29-yanvardagi __06__ son yig'ilishi bayoniga Ilova*

# Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligining 2026-yil 1-yarim yillik ish rejasi

| | **Ustuvor vazifalar va o'rganiladigan masalalar mavzusi (chora-tadbirlar nomi)** | **Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari** | **Ijro muddati** | **Ijro uchun mas'ullar** | **Kutilatyogan natija** |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida hamda Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar** | | | | | |
| **1. "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar** | | | | | |
| **1.** | "O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun tarkibiy bo'linmalar va tizim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish. | 1. Davlat dasturida agentlikga tegishli vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha buyruq loyihasi va nazorat rejasi ishlab chiqilishini tashkil etish.<br>2. Buyruq va nazorat rejasida belgilangan vazifalar amalga oshirilishi holati ustidan ijro nazoratini tizimli yo'lga qo'yish<br>3. Davlat dasturi ijrosi yuzasidan har oyning **23 sanasiga qadar ijrochilardan ma'lumot olish va tahlil qilish.**<br>4. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha oylik (choraklik) natijalarni agentlik markaziy apparatining yig'ilishlarida muhokama qilib borish.<br>5. Davlat dasturi ijrosi yuzasidan har oyning **25-sanasiga qadar** tegishli tashkilotlarga hisobotlar (ma'lumotlar) kiritilishini ta'minlash. | 2026-yil fevral<br><br>Yil davomida<br><br>har oyning 23-kuniga qadar<br><br>har oyning 25-kuniga qadar | Ijro nazorati va devonxona bo'limi (*G'.Hoshimov*),<br>Boshqarma va bo'lim boshliqlari | "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturida soha bo'yicha belgilangan vazifalar o'z vaqtida va sifatli ijrosi ta'minlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida 2026-yil uchun belgilab berilgan ustuvor vazifalar** | | | | | |
| **2.** | Muhim sanalarga bag'ishlangan davlat bayramlariga qisqa video roliklarni ishlab chiqish va targ'ib etish. | 1. Davlat bayramlari va muhim sanalar kalendar rejasini shakllantirish.<br>2. Har bir sana uchun asosiy g'oya, shior va xabarni belgilash va tayyorlash.<br>3. Videoroliklar uchun ssenariylar yaratish.<br>4. Davlat bayramlarining g'oyaviy mazmunini aks ettiruvchi qisqa video kontentlar ishlab chiqish.<br>5. Maqsadli auditoriyani aniqlash (yoshlar, keng jamoatchilik, muayyan ijtimoiy guruhlar).<br>6. Video roliklarni ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali keng targ'ib qilish. | 2026-yil davomida<br><br>reja asosida | Ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchi (*D.Turdiboyeva*),<br>Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo'limi (*Sh.Qobulov*),<br>"Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi" DUK (*B.Adilov*) | Davlat bayramlari va muhim sanalarning mazmun-mohiyati aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida zamonaviy, ta'sirchan va ommabop formatda targ'ib etiladi.<br>Davlat bayramlariga bo'lgan qiziqish va xabardorlik oshadi.<br>Zamonaviy axborot makonida milliy qadriyatlar keng targ'ib etiladi va samarali media mahsulotlar yaratiladi. |
| **3.** | Markaziy Osiyo davlatlari bilan kinematografiya sohasida aloqalarni tizimli yo'lga qo'yish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish. | 1. Markaziy Osiyo davlatlaridagi kinokompaniyalar bilan qo'shma filmlar ishlab chiqarish bo'yicha hamkorlikni yanada kuchaytirish choralarini ko'rish.<br>2. Markaziy Osiyo davlatlaridagi ilg'or ish tajribasiga ega kino kompaniyalar va studiyalar ishtirokida filmlar yaratish ishlari ko'lamini kengaytirish hamda o'zaro tajriba almshinuvni yo'lga qo'yish. | 2026-yil reja asosida | Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi (*B.Qodirov*),<br>Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*) | Xorijiy kinokompaniyalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali milliy kinosanoatning salohiyati oshadi, zamonaviy filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularni xalqaro maydonda targ'ib etish imkoniyatlari kengayadi. |
| **3. Vazirlar Mahkamasining yaqin muddatga va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini amalga oshirishga oid ustuvor vazifalar** | | | | | |
| **4.** | "Tirik tarix" filmlar turkumini yaratish dasturi doirasida milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi 15 ta filmlar yaratilishini tashkil etish. | 1. Studiyalar o'rtasida pitching tanlovini o'tkazish.<br>2. Pitchingda g'olib bo'lgan studiyalar tomonidan loyihalarning adabiy va rejissyorlik ssenariylarini tayyorlash.<br>3. Tayyorlangan ssenariylarni Milliy kengash ishchi guruhi va Milliy kengash ko'rigidan o'tkazish;<br>4. Milliy kengash tomonidan tasdiqlangan ssenariylarni ishlab chiqarishga tushirish. | Yil davomida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*),<br>Istiqbolli ijodiy dasturlar bilan ishlash bo'limi (*X.Ismoilova*) | Xalqimizning qadimiy va boy tarixi va buyuk ajdodlar merosini aks ettiruvchi filmlar yaratiladi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **II. O'zbekichston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari bilan yuklatilgan vazifalar ijrosini maqsadli o'rganish** | | | | | |
| **5.** | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi "Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag'ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-209-son qarori ijrosi holatini maqsadli o'rganish. | 1. Ishchi guruhi tarkibini shakllantirish va vazifalarini belgilash.<br>2. Qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan idoraviy hujjatlar va rejalar bajarilishini, statistik ma'lumotlar, ajratilgan mablag'lar va ularning o'zlashtirilishini, yaratilgan (yoki yaratilayotgan) filmlar soni va mavzulari, tomoshabinlar qamrovini o'rganish.<br>3. Tegishli tarkibiy tuzilmalarning choraklik/yillik hisobotlarini o'rganish.<br>4. Amaliy holatni o'rganish (kino studiyalariga chiqish, suratga olish jarayonlari va tayyor filmlarni ko'rib chiqish), monitoringini olib borish yo'li bilan doimiy nazorat qilish.<br>5. Tahliliy ma'lumot tayyorlash va Agentlik rahbariyatiga kiritish.<br>6. O'rganish natijalarini Agentlikning markaziy apparati yig'ilishida muhokama qilish va tegishli chora-tadbirlar belgilash. | 2026-yil<br>II chorak | Ijro nazorati va devonxona bo'limi *(G'.Xoshimov),*<br>Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*),<br>Moliya-iqtisod boshqarmasi *(B.Norov),*<br>Boshqarma va bo'lim boshliqlari | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5 iyunda qabul qilingan PQ-209-son qarori ijrosining amaldagi holati o'rganilib, uning to'liq va sifatli bajarilishi ta'minlanadi. |
| **III. Kinematografiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligining tahlili** | | | | | |
| **6.** | Davlat buyurtmasi asosida kinomahsulot yaratish, kinematografiya sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish, sun'iy intelekt, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijadorligi tahlili. | 1. Ishchi guruh tarkibini tuzish va tasdiqlash.<br>2. Ishchi guruh vazifalarini belgilash.<br>3. Belgilangan yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar holatini o'rganish va ma'lumotlarni jamlash.<br>4. Ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilish.<br>5. Tahlil natijalarini Agentlik markaziy apparati yig'ilishida muhokama qilish va tegishli chora-tadbirlar belgilash. | 2026-yil<br>II chorak | Yig'ma axborot tahlil, strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi (*Z.Karimov*),<br>Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo'limi (*Sh.Qobulov*),<br>Axborot xizmati (*S.Rajabov*),<br>Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va | Davlat buyurtmasi asosida kinomahsulotlar yaratilishi sohadagi islohotlar, OAVda yoritilishi, raqamlashtirish hamda AKT va sun'iy intellekt joriy etilishi natijadorligi baholanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | raqamlashtirish bo'limi (*M.Po'latov*) | |
| **IV. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarlik qiladigan Vazirlar Mahkamasi komissiyalari majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalar** | | | | | |
| **7.** | O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri rahbarligida 2026-yil 1-yarim yilligida o'tkaziladigan majlislar va taqdimotlar rejasiga asosan:<br>"Tirik tarix" dasturi doirasida yaratilayotgan filmlar muhokamasi bo'yicha Kinematografiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy komissiyasi majlisiga tayyorgarlik ko'rish va tashkil qilish. | 1. Muhokamaga kiritiladigan masalalar yo'nalishlarini belgilash.<br>2. Majlis kun tartibi loyihasini ishlab chiqish.<br>3. Muhokama etiladigan masalalar bo'yicha materiallarni yig'ish va tizimlashtirish.<br>4. Tahliliy ma'lumotlar va taqdimot materiallarini tayyorlash.<br>5. Majlis ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish.<br>6. Majlis hujjatlari loyihalarini va materiallarini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.<br>7. Hujjatlar loyihalarini Bosh vazir kotibiyati rahbarida himoya qilish.<br>8. Majlisni o'tkazish. | 2026-yil aprel-may<br>5 iyun<br>9 iyun<br>12 iyun | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Istiqbolli ijodiy dasturlar bilan ishlash bo'limi (*X.Ismoilova*) | Komissiya majlisiga zarur hujjatlar ishlab chiqiladi, yuqori darajada tayyorgarlik ko'riladi va tashkil etiladi. |
| **V. Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va takomillashtirish** | | | | | |
| **8.** | O'zbekiston Respublikasining "Kinematografiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish. | 1. Kino ijodkorlar va soha mutaxassislaridan iborat Ishchi guruhi faoliyatini tashkil etish.<br>2. Ishchi guruhi tomonidan Qonun loyihasi va tegishli hujjatlarni tayyorlash, ularni huquqiy ekspertizadan o'tkazish.<br>3. Qonun loyihasini idoraviy kelishuv va ekspertizadan o'tkazish, normativ-huquqiy hujjatlar muhokamasi portaliga joylashtirish bo'yicha Madaniyat vazirligiga o'rnatilgan tartibda kiritish. | 2026-yil II chorak | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Boshqarma va bo'lim boshliqlari, Bosh yuriskonsult (*D.Kasimov*), Ishchi guruhi, O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi (*kelishuv asosida*) | O'zbekistonda kinematografiya sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish, milliy kinoni rivojlantirish, investitsiya va ijodiy faollikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish uchun huquqiy asos yaratiladi. |
| **9.** | "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga **o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif** kiritish. | 1. Ishchi guruh faoliyatini tashkil etish.<br>2. Ishchi guruhi tomonidan sohaga tegishli Qonun va qonun osti hujjatlari bazasini o'rganish va tahlil qilish.<br>3. O'rganish natijalaridan kelib chiqib, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish va | 2026-yil I chorak | Yig'ma axborot-tahlil, strategik rivojlantirish va metodologiya bo'limi (*Z.Karimov*), Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi | Agentlik vakolatlari aniq belgilalanadi, kino sohasida davlat boshqaruvi va muvofiqlashtirish samaradorligini oshirish hamda sohani rivojlantirish uchun aniq huquqiy mexanizmlar joriy etiladi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qo'shimchalar kiritish bo'yicha o'rnatilgan tartibda taklif kiritish. | | (*Sh.Hayitov*),<br>Bosh yuriskonsult<br>(*D.Kasimov*),<br>Ishchi guruhi | |
| **10.** | "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq filmlarni namoyish etish, sifatli xizmatlar ko'rsatish va kinojihozlardan **texnik jihatdan foydalanish qoidalari**ni ishlab chiqish | 1. Ishchi guruh faoliyatini tashkil etish.<br>2. O'zbekiston Respublikasi hududida filmlarni namoyish etish, sifatli xizmatlar ko'rsatish va kino jihozlardan texnik jihatdan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlatish. | 2026-yil<br>I chorak | Ruxsatnomalar berish masalalari bilan shug'ullanish va yagona repertuar siyosati yuritilishini ta'minlash bo'limi<br>(*F.Nadirova*),<br>"Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi" NNT<br>(*F. Usmanov*),<br>Bosh yuriskonsult<br>(*D.Kasimov*) | Filmlarni namoyish etishda yagona standartlarni joriy etish, xizmatlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek kinojihozlardan texnik jihatdan to'g'ri va samarali foydalanish uchun aniq talablar belgilanadi. |
| **11.** | "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq Davlat buyurtmasi asosida kinematografiya mahsulotining **badiiy va mafkuraviy darajasini oshirish** bo'yicha ishlab chiqiladigan filmlarning badiiy-g'oyaviy mazmunini ko'rib chiquvchi **Maslahatchilar guruhini tashkil etish** | 1. Davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqiladigan filmlarning badiiy-g'oyaviy mazmunini ko'rib chiquvchi mutaxassislardan iborat **Maslahatchilar guruhi** tarkibini shakllantirish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini ta'minlash.<br>2. Guruh tomonidan davlat buyurtmasi asosida ishlab chiqiladigan filmlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni ko'rib chiqilishini tizimli yo'lga qo'yish. | Filmlarni ishlab chiqarish rejasiga asosan<br><br>Yil davomida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi<br>(*Sh.Hayitov*),<br>Bosh yuriskonsult<br>(*D.Kasimov*) | Filmlarning badiiy va g'oyaviy mazmunini tahlil qilish orqali ularning sifatini oshirish, milliy va umumbashariy qadriyatlarga mos, tushunarli va ta'sirli kino mahsuloti yaratilishiga erishiladi. |
| **12.** | **Kinematografiya agentligi faoliyatini tartibga soluvchi Nizom loyihasini** tayyorlash va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 1. Mutaxassislardan iborat ishchi guruhi faoliyatini tashkil etish.<br>2. Kinematografiya agentligi faoliyatini tartibga soluvchi Nizom loyihasini tayyorlash va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash choralarini ko'rish. | 2026-yil<br>I chorak | Ijro apparati rahbari<br>(*N.Musaev*)<br>Boshqarma va bo'lim boshliqlari,<br>Bosh yuriskonsult<br>(*D.Kasimov*),<br>Ishchi guruh | Agentlik faoliyatini huquqiy asosda tartibga solish va uning vazifa va vakolatlar belgilash, kinematografiya sohasida samarali boshqaruv ta'minlanadi. |
| **13.** | Filmlar moliyaviy-iqtisodiy xarajatlari asosliligiga baho beruvchi **Ekspertlar kengashi Nizomi tasdiqlanishini ta'minlash.** | 1. Soha mutaxassislarini jalb etgan holda, filmlar moliyaviy-iqtisodiy xarajatlari asosliligiga baho beruvchi **Ekspertlar kengashi Nizomi** loyihasini ishlab chiqish, | 2026-yil<br>I chorak | Moliya-iqtisod boshqarmasi<br>(B.Norov),<br>Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi | Kinoloyihalar xarajatlari shaffofligi, maqsadliligi va samaradorligi ta'minlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | huquqiy ekspertizadan o'tkazish va muhokama qilish.<br>2. O'rnatilgan tartibda tasdiqlanishini ta'minlash. | | (*Sh.Hayitov*),<br>Bosh yuriskonsult<br>(*D.Kasimov*) | |
| **14.** | Filmlarni ishlab chiqarish xarajatlari smetasini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan **Milliy me'yorni** manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishib, belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish. | 1. Milliy me'yor loyihasini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish;<br>2. Loyihani idoraviy kelishuv va ekspertizadan o'tkazish;<br>3. **Milliy me'yorni** o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish. | 2026-yil<br>I chorak | Moliya-iqtisod boshqarmasi<br>(B.Norov),<br>Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi<br>(*Sh.Hayitov*),<br>Bosh yuriskonsult<br>(*D.Kasimov*) | Filmlarning moliyaviy va iqtisodiy xarajatlari asosli va samarali hisoblanishi ta'minlanadi. |
| **VI. Milliy kinetmatografiyani rivojlantirishning strategik maqsad va ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish** | | | | | |
| **6.1. Kino san'atini jamiyatning ma'naviy, madaniy-ma'rifiy hayotida, jumladan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda strategik manba sifatida shakllantirish** | | | | | |
| **15.** | Vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, banklar va mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda **Yangi O'zbekiston kinosolnomasini yaratish**. | 1. Kinosolnomalarni yaratish ishlarini tashkil etish bo'yicha Ijodiy-ishchi guruhi tarkibini shakllantirish va tasdiqlash.<br>2. Manbalar, ilmiy dalillar, ijtimoiy tahlil va badiiy yechimlarga tayangan holda, voqelikni xolis va mazmunli aks ettiruvchi **kinosolnoma yaratish**.<br>3. Davlat va nodavlat ommaviy axborot vositalarida kinosolnomalar tizimli yoritib borilishini tashkil etish. | 2026-yil<br>fevral<br><br>reja asosida<br><br>muntazam | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi<br>(*Sh.Hayitov*),<br>Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo'limi<br>(*Sh.Qobulov*),<br>"Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi" DUK<br>(*B.Adilov*) | Kinosolnoma mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, tarixiy o'zgarishlar va xalq hayotini haqqoniy va zamonaviy uslubda aks ettirib, milliy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. |
| **16.** | Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda o'tkaziladigan **"Kinokarvon"** loyihasi doirasida film namoyishlarini tashkil etish va ushbu tadbirlarga tomoshabinlarni jalb etish choralarini ko'rish. | 1. Hududlarda **"Kinokarvon"** loyihasini amalga oshirish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. Namoyish etiladigan filmlar ro'yxatini shaklantirish hamda ishtirok etuvchi ijodkorlarni tarkibini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>3. **"Kinokarvon"** loyihasi doirasida namoyish etiladigan filmlar targ'ibotini tashkil etish hamda reklama roliklarini tarqatish. | 2026-yil<br>fevral<br><br>mart<br><br>reja asosida | Axborot xizmati<br>(S.Rajabov),<br>Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo'limi<br>(Sh.Qobulov),<br>Ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchi<br>(*D.Turdiboyeva*), | Kinoning ma'naviy tarbiya, jamoatchilik muloqoti va madaniy taraqqiyotni rag'batlantiruvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida ta'siri oshadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 4. Tadbirlarga aholi, xususan yoshlarni keng jalb etish chorlarini ko'rish.<br>5. Tadbirlarni respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishini tashkil qilish. | | O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi *(kelishuv asosida)* | |
| 17. | **Jamiyatning ma'naviy yuksalishida milliy kino kontentidan** (filmlar namoyishlari, muhokamalari, tahlillar, intervyular orqali) **milliy filmlar ma'rifiy-tarbiyaviy resurs** sifatida foydalanish ahamiyatini aholi, xususan yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish | 1. **"Milliy kino va ma'naviyat"** mavzusida film namoyishlarini o'tkazish..<br>2. Namoyishalardan so'ng muhokamalar, tahlillar, davra suhbatlari tashkil etish, shuningdek, **"Eng yaxshi film tahlili"**, **"Yosh kinotahlilchi"** tanlovlari o'tkazish.<br>3. Yoshlar o'rtasida ssenariy, retsenziya va esse konkurslari tashkil etish.<br>4. Televidenie va internet platformalarida milliy filmlar haqida ko'rsatuvlar, rejissyor va aktyorlar bilan intervyular, yoshlar ishtirokida tahliliy podkastlar tashkil etish.<br>5. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa video-sharhlar, film g'oyasiga bag'ishlangan chellenjlar, blogerlar orqali targ'ibot ishlarini amalga oshirish.<br>6. Yosh rejissyor va kinoshunoslar bilan uchrashuvlar uyushtirish. | 2026-yil davomida<br><br>Reja asosida | Axborot xizmati (*S.Rajabov*), Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo'limi (*Sh.Qobulov*), Ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchi (*D.Turdiboyeva*), "Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi" NNT (*F. Usmanov*), O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi *(kelishuv asosida)* | Filmlar orqali milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy qarashlar va ijtimoiy faollikni oshirish hamda yoshlarning estetik didi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanishiga erishiladi. |
| 18. | An'anaviy va zamonaviy milliy filmlar orqali milliy madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek, yoshlar orasida milliy kinoni ommalashtirishga, kino madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan media loyihalar va ijtimoiy aksiyalarni tashkil etish. | 1. Milliy filmlar ro'yxatini shakllantirish (an'anaviy, tarixiy, zamonaviy).<br>2. **"Bir film — bir qadriyat"** aksiyasi o'tkazish.<br>3. Ochiq osmon ostida milliy filmlar namoyishini tashkil qilish.<br>4. **"Milliy kino haftaligi"** media loyihalarni (onlayn va oflayn namoyishlar) amalga oshirish. | 2026-yil may<br><br>reja asosida | Axborot xizmati (*S.Rajabov*), Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), O'zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi *(kelishuv asosida)* | Milliy kino orqali madaniy meros keng targ'ib qilinadi, yoshlarda milliy kino san'atiga qiziqish oshiriladi hamda kino madaniyati shakllantiriladi. |
| 19. | Hududlarda sayyor kino namoyishlar orqali milliy filmlarning **ommaviy ma'naviy ta'sirni** kuchaytirish va tomoshabinlar fikrini o'rganish orqali | 1. Sayyor kino namoyishlar o'tkaziladigan hududlar (qishloqlar, mahallalar, ta'lim muassasalari, harbiy qismlar, mehnat jamoalari) ro'yxatini shakllantirish, bunda | 2026-yil aprel | Axborot xizmati (*S.Rajabov*), Ruxsatnomalar berish masalalari bilan | Milliy filmlarning aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida qamrovi kengayadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | filmlarning ijtimoiy ta'sirini oshirish choralarini ko'rish. | chekka va kam qamrab olingan hududlarga e'tibor qaratish.<br>2. Sayyor kino namoyishlarni tashkil etish va ularda ijodkorlarning ishtirokini ta'minlash.<br>4. Namoyishdan so'ng ochiq muloqot va muhokama o'tkazish.<br>5. Tomoshabinlar fikri asosida milliy filmlar mazmunini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish. | reja asosida | shug'ullanish va yagona repertuar siyosati yuritilishini ta'minlash bo'limi *(F.Nadirova),* Ma'naviyat va davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchi (*D.Turdiboyeva*), Hududlar bilan ishlash va tizim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (I.Nematillayeva) | Filmlarning ma'naviy-tarbiyaviy va ijtimoiy ta'siri oshadi.<br>Tomoshabinlar fikri asosida milliy filmlar mazmunini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. |
| **6.2. Kino sanoatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, shuningdek, xorijiy kinokompaniyalarni mamlakatga jalb qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish** | | | | | |
| **20.** | **Davlat buyurtmasi asosida milliy kino mahsulotlarin yaratish** bo'yicha kinoloyihalar tanlovi hamda pitching tanlovlarini o'tkazish, filmlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarishni davom ettirish va yakunlangan filmlar taqdimotini o'tkazish. | 1. Davlat buyurtmasi asosida kino mahsulotlari yaratish va aholiga namoyish etish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. **2026-yilda** quyidagi milliy kino mahsulotlarini yaratish, shu jumladan: | 2026-yil fevral<br><br>Yil davomida reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Davlat buyurtmasi bilan ishlash bo'limi (*Sh.Qobulov*) Istiqbolli ijodiy dasturlar bilan ishlash bo'limi (*A.Chimirzayev*) | Sifatli milliy kino mahsulotlari yaratiladi.<br>Iqtidorli kinematograflar aniqlanadi va ular qo'llab-quvvatlanadi.<br>Kino ishlab chiqarish jarayoni tizimli va samarali tashkil etiladi.<br>Milliy kino salohiyati oshadi.<br>Yakunlangan filmlar keng jamoatchilikka taqdim etiladi va milliy kinoga qiziqish kuchayadi. |
| | | **- 20 ta** to'liq metrajli badiiy filmlar; | | | |
| | | **- 20 ta** qisqa metrajli filmlar; | | | |
| | | **- 30 ta** hujjatli, ilmiy-ommabop, o'quv-uslubiy filmlar, ijtimoiy roliklar, kinosolnoma lar; | | | |
| | | 3. Davlat buyurtmasi asosida suratga olinishi yakunlangan **15** ta filmlar taqdimotini o'tkazish. | | Axborot xizmati (*S.Rajabov*), Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), "Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi" NNT (*F. Usmanov*) | |
| | | 4. Ishlab chiqilgan to'liq va qisqa metrajli filmlarga tomoshabinlarni jalb etish (**35 000,0 nafar**) | | | |
| | | 5. Ishlab chiqilgan multiplikatsion filmlarga tomoshabinlarni jalb etish (**16 000,0 nafar**) | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **21.** | Davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosini aks ettiruvchi filmlar ishlab chiqarish hamda xorijda, xususan kinofestivallar va telekanallarda namoyish etish | 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ-209-son qarori bilan tasdiqlangan **"Tirik tarix" filmlar turkumini yaratish dasturiga kiritilgan** filmlarni ishlab chiqarish rejasini tayyorlash va tasdiqlatish.<br>2. **2026-yilda** quyidagilarni amalga oshirish, shu jumladan:<br>- **22 ta** filmlarni ishlab chiqarishni (ishga tushirishni) tashkil etish;<br>- **18 ta** filmlarni ishlab chiqarishni davom ettirish;<br>- **10 ta** filmlarni ishlab chiqarishni yakunlash va taqdimotini o'tkazish. | 2026-yil fevral<br><br>Yil davomida reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Istiqbolli ijodiy dasturlar bilan ishlash bo'limi (*X.Ismoilova*) | Milliy kinoning xalqaro nufuzi ortadi.<br>O'zbekistonning tarixiy-madaniy brendi mustahkamlanadi.<br>Yosh avlodda tarixiy ong va faxr hissi kuchayadi.<br>Kinematografiya sohasida madaniy diplomatiyaning samarali vositasi yaratiladi. |
| **22.** | Xorijiy kinokompaniyalar hamda studiyalarni kinematografiya sohasiga jalb qilish va hamkorlikda filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish | 1. Qo'shma filmlar ishlab chiqarish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish choralarini ko'rish.<br>2. Ilg'or xalqaro tajribani o'rganish va milliy kino amaliyotiga tatbiq etish.<br>3. Chet el davlatlaridagi ilg'or ish tajribasiga ega xorijiy kompaniyalar hamkorligida kinomahsulotlar yaratish loyihalarini amalga oshirish. | 2026-yil reja asosida | Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi *(B.Qodirov)*, Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (Sh.Hayitov) | Xorijiy kinokompaniyalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali milliy kinosanoatning salohiyati oshadi, zamonaviy filmlar ishlab chiqarishni rivojlantirish va ularni xalqaro maydonda targ'ib etish imkoniyatlari kengayadi. |
| **23.** | O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yosh kino ijodkorlarning xorijiy davlatlarda tajriba almashinuvini yo'lga qo'yish. | 1. Yosh kino ijodkorlarining **15 ta** xorijiy davlatlarda kino san'ati va kino sanoati sohasida tajriba almashishini yo'lga qo'yish.<br>2. Yosh ijodkorlarni xalqaro kinofestivallarga yuborish va ularning loyihalarini taqdim etish imkoniyatini yaratish.<br>3. Yosh rejissyorlarga xalqaro kino muhitini tanitish, prodyuserlar va distribyutorlar bilan uchrashuvlarni tashkil qilish. | 2026-yil reja asosida | Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi *(B.Qodirov)*, Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*) | Yosh kino ijodkorlarning xalqaro tajriba va bilimlari oshadi.<br>Zamonaviy kino texnologiyalari va ish uslublari o'zlashtiriladi. |
| **6.3. Milliy multiplikatsiya industriyasini shakllantirish, animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish** | | | | | |
| **24.** | Davlat buyurtmasi asosida multiplikatsion filmlar yaratish, shu jumladan, milliy qahramonlar haqida multiplikatsion filmlar ishlab chiqarishni tashkil etish. | 1. 2026-yilda **15 ta** multiplikatsion filmlar (shundan, milliy qahramonlar haqida **2 ta**) ishlab chiqarish.<br>2. Multiplikatsion filmlarni internet platformalariga joylashtirish; | 2026-yil reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy | Yosh avlod ongida milliy g'urur, milliy qahramonlar obrazi shakllanadi, tarixiy merosga hurmat va milliy o'zlik mustahkamlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Filmlarni telekanallarda namoyishini tashkil qilish. | | etish va raqamlashtirish bo'limi (M.Po'latov) | |
| **25.** | Animatsion filmlar ishlab chiqarishga yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish. | 1. "UzAnimation" milliy multiplikatsiya dasturini ishlab chiqish;<br>2. Animatsion filmlar (multfilmlar) ishlab chiqarishga multiplikatsiya studiyalari hamda yosh multiplikator va animatorlarni keng jalb qilish;<br>3. Yosh multiplikator va animatorlarni qo'llab-quvvatlash hamda ular o'rtasida konkurslar va grantlar tashkil qilish;<br>4. Milliy madaniyat, urf-odat, tarix va qadriyatlarni aks ettiruvchi, xalq ertaklari, milliy qahramonlar va an'analarga asoslangan tarbiyaviy multfilmlarning mahallalarda bolalar o'rtasida targ'ibotini amalga oshirish. | 2026-yil mart<br><br>reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), "Yoshlik" kinostudiyasi" davlat unitar korxonasi (A.Abdunazarov) | Animatsion serial va filmlar ishlab chiqarishga studiyalarni keng jalb etish orqali milliy animatsiya sohasining salohiyati oshadi, ijodkorlar qo'llab-quvvatlanadi, raqobatbardosh va sifatli milliy kontent yaratiladi hamda samarali hamkorlik tizimi shakllanadi. |
| **26.** | Animatsiya studiyalari, yosh multiplikator va animatorlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash va ularning malakasi va mahoratini oshirish. | 1. Mentorlik va tajribali mutaxassislar tomonidan yosh kadrlar bilan mahorat darslarini tashkil etish.<br>2. Start-ap yoki kichik animatsion loyihalarni qo'llab quvvatlash.<br>3. Animatsiya va multiplikatsiyaga ixtisoslashgan kurslar, onlayn va offlayn treninglar tashkil qilish.<br>4. Yosh animatorlar uchun kinofestivallar tashkil qilish. | 2026-yil reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), "Yoshlik" kinostudiyasi" davlat unitar korxonasi (A.Abdunazarov) | Animatsiya studiyalari hamda yosh multiplikator va animatorlar loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali sohaga yangi iste'dodlarni jalb etish, zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash, milliy animatsiya mahsulotlari sifatini oshirish va raqobatbardosh kontent yaratishga erishiladi. |
| **6.4. Kino sanoatini iqtisodiyotning alohida tarmog'i sifatida rivojlantirish, zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratuzilmani yaratish** | | | | | |
| **27.** | Kino sohasida milliy va xorijiy tajribalar asosida zamonaviy va yuqori texnologik moddiy-texnika bazasiga ega infratuzilmani yaratish va undan samarali foydalanish. | 1. Milliy va yetakchi xorijiy kinoindustriyalar tajribasini o'rganish va natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash va kiritish.<br>2. Davlat-xususiy sheriklik (DXSh), xorijiy investorlar va texnologik kompaniyalarni jalb qilish. | 2026-yil aprel<br><br>Yil davomida | Moliya-iqtisod boshqarmasi (*B.Norov*), Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), "O'zbekfilm" DUK (*B.Muhamedov*) | Filmlarni ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi va milliy kinoning xalqaro bozorda raqobatbardoshligi ta'minlanadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **28.** | Kinoindustriyaga (shu jumladan xususiy va xorijiy) yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish. | 1. Kinoindustriya sohasidagi xususiy va xorijiy kompaniyalar to‘g‘risida ma’lumotlar bazasini shakllantirish;<br>2. Kino sanoatga investitsiyalar hajmini oshirish hamda sohaga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish;<br>3. **2026-yilda** kinoindustriyaga yo‘naltirilgan **investitsiyalar hajmini 1,5 mln. dollarga yetkazish**. | 2026-yil mart<br><br>reja asosida | Moliya-iqtisod boshqarmasi (*B.Norov*) | Xususiy va xorijiy prodyuserlar uchun jozibador investitsiya muhiti yaratiladi.<br>Xalqaro kino loyihalari va ko-produksiya hajmi ko‘payadi.<br>Kino sohasidan tushadigan daromad va eksport salohiyati oshadi. |
| **29.** | Milliy kinematografiya mahsulotlari eksporti hajmini oshirish. | **1.** Xalqaro kino bozorni tahlil qilish.<br>2. Xalqaro kino bozorga taqdim etiladigan filmlar ro‘yxatini tuzish.<br>**3.** Xalqaro prodyuserlarni jalb qilish va ular orqali distributsiya va marketing imkoniyatlarini kengaytirish.<br>4. Filmlarni xalqaro kino bozorga taqdim etib borish.<br>5. **2026-yilda** milliy kinematografiya mahsulotlari **eksporti hajmini 0,2 mln. dollarga yetkazish**. | 2026-yil mart<br><br>reja asosida | Moliya-iqtisod boshqarmasi (*B.Norov*), Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo‘limi, (*B.Qodirov*) | Milliy filmlar eksporti orqali valyuta tushumi oshadi, mamlakatning xalqaro imiji va kino bozoridagi ulushi kengayadi. |
| **6.5. Kinematografiya sohasida kadrlar tayyorlash, kino ijodkorlari va texnik xodimlari malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish** | | | | | |
| **30.** | Yoshlar uchun ssenariy yozish, rejissura va aktyorlikka oid **ma’rifiy loyihalar**ni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash. | 1. Yosh rejissyor, ssenaristlar va prodyuserlarni qo‘llab-quvvatlash orqali yangicha qarash va innovatsion uslublarni rag‘batlantirish.<br>2. Yosh ssenarist va rejissyorlarni kinoloyihalarga jalb etish.<br>3. Milliy va xalqaro ustozlar bilan amaliy darslar o‘tkazish. | Yil davomida reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), Istiqbolli ijodiy dasturlar bilan ishlash bo‘limi (*X.Ismoilova*), “Yoshlik” kinostudiyasi” davlat unitar korxonasi (A.Abdunazarov) O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi (*kelishuv asosida*) | Iste’dodli yoshlar aniqlanadi, kasbiy kadrlar zaxirasi shakllanadi va milliy kino sifati barqaror oshadi. |
| **31.** | Ijodiy mutaxassislar (rejissyor, ssenarist, operator va boshqa ijodkorlar) **kasbiy salohiyatini rivojlantirish va** | 1. Mahalliy ustozlar bilan master-klasslar va treninglar tashkil qilish.<br>2. Kino festivallar va seminarlarda ishtirok etishini yo‘lga qo‘yish. | Yil davomida reja asosida | Kinoloyihalar bilan ishlash boshqarmasi (*Sh.Hayitov*), | Ijodiy mutaxassislar mahorati oshadi, zamonaviy yondashuvlar joriy etiladi va milliy kino raqobatbardoshligi kuchayadi. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
